

Hayvon toqimasi va o'simliklardagi oqsil miqdori

To'qimalarning nomi	Yangi to'qima og'irligiga nisbatan oqsilning % miqdori
Muskil to'qimalari	18 - 23
Jigar to'qimalari	18 – 19
Taloq to'qimalari	17 – 18
Buyrak to'qimalari	16 – 17
Yurak to'qimalari	16 – 18
O'pka to'qimalari	14 – 15
Miya to'qimalari	7 – 9
O'simliklar urug'i	10 – 13
Poyalari	1,5 – 3,0
Barglari	1,2 – 3,0
Ildizlari	0,5 – 3,0
Mevalari	0,3 – 1,0

URUG'LARNI YO'L-YO'L USULIDA EKADIGAN QURILMA

B.V.Abdullayev – magistratura talabasi, T.A.Xayitov – katta o'qituvchi

Kuzgi bug'doydan mo'l va sifatli hosil yetishtirishda uni optimal muddatlarda ekish muhim ahamiyatga ega. Viloyatimizda paxta hosilini yig'ishtirib olish, kech 10-20 noyabrda tugallanadi va bunday muddatda ekilgan kuzgi bug'doy hosildorligi keskin pasayadi. Kuzgi bug'doyni ekish kechikib ketishini oldini olish maqsadida u g'o'za qator oralariga ekiladi. G'o'za qator oralariga bug'doy yetishtirish texnologiyasi ochiq maydonlarda kuzgi bug'doy yetishtirish texnologiyasidan keskin farq qiladi.

Kuzgi bug'doyni g'o'za qator oralarida yetishtirishda yer haydalmaydi, tekislanmaydi, chizellanmaydi va boshqa agroteknik tadbirlarda ham farqlar bor. Shuning uchun g'o'za qator oralarida kuzgi bug'doy yetishtirishda energiya, resurslar tejiladi, yetishtirilgan don tannarxi nisbatan past bo'ladi.

G'o'za qator oralariga kuzgi bug'doy ekishning kamchiliklari ham bor. Kuzgi bug'doy g'o'za qator oralariga ekilganda urug'lar bir tekis tarqalmaydi, pushta va egat ichidagi urug'lar turli chuqurliklarga tushgani uchun har xil muddatlarda, qalinlikda unib chiqadi, natijada turli yoshdagi, mahsuldorligi har xil o'simliklar paydo bo'ladi. Bu esa hosildorlikka, don sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida urug'larni yo'l-yo'l usulda ekadigan yangi mashinani loyihaladik. Bu mashina qator oralariga urug'larni ratsional taqsimlashi hisobiga, mehnat sarfini kamaytiradi va hosildorlikni oshiradi hamda mavjud mashinalarga taqqoslaganda bir qator afzalliklarga ega:


- ekish aniqligi va tezligi yuqori;
- mashina tuzilishi konstruktiv jihatdan sodda;
- mehnat va yoqilg'i sarfi kam;
- mashina ishchi organlarini rostdash oddiy.

Loyihalangan mashina quyidagi tartibda ishlaydi: Mashina rama 1 ga o'rnatilgan taqish mexanizmi 2 yordamida agregatlanadi. Harakat jarayonida pichoq 8 tuproq qatlamini vertikal tekislikda H_0 chuqurlikda qirqadi, keyin panjasimon soshnik 9 tuproq qatlamini gorizontal tekislikda H_1 chuqurlikda va V kenglikda ishlov berish bilan bir yo'la urug' uchun ariqcha ochib ketadi. Tayanch g'ildirak 4 dan harakat olib aylanadigan ekish apparati 5 dan urug'lar urug' utkazgich 6 ga keyin esa urug' taqsimlagich 14 orqali panjasimon soshnik 9 ga tushadi va ishlov berilgan kengligi V ga teng yuza bo'ylab taqsimlanadi.

Mashina ishchi qismlarini N_1 , N_2 , N_3 , N_5 chuqurliklarga rostlashda tutqichlarni mahkamlash mexanizmi 12, 13 va ekish chuqurligini rostlash mexanizmi 3 dan foydalaniladi. Panjasimon soshnik 9 bilan panjasimon ag'dargich 10 o'rtasidagi L masofa esa tutqichlarni mahkamlash mexanizmi 12, 13 ni brus 15 da siljitish yo'li bilan rostlanadi. Mashinaning texnologik sxemasi 1-rasmda keltirilgan.


Loyihalangan soshnikning tuzilishi va ish jarayoni. Soshnikning umumiy ko'rinishi 2-rasmda keltirilgan bulib, u quyidagi qismlardan ya'ni tutqich 2ga mahkamlangan strelkasimon panja 1, urug' o'tkazgich 3, urug' o'tkazgich tutqichi 4, cheklagich 5, cheklagich tutqichi 6, rostlash teshiklari 7,8,9, urug' o'tkazgich joylashishini rostlagich xamut 10, xamut bo'lti 11, ko'mish diski 12, vilka 13, pales 14, shtok 15, disk o'qi 16, prujina 17, disk tutqichi 18, kronshteyn 19, yo'naltiruvchi vtulka 20, disk chuqurligini rostlash vinti 21 dan tuzilgan.

Soshnik quyidagi tartibda ishlaydi: tutqich 2ga o'rnatilgan strelkasimon panja 1 tuproqni yumshatish bilan bir vaqtda urug' uchun ariqcha ham ochib ketadi. Ochilayotgan ariqcha belgilangan o'lchamlardan katta bulmasligi uchun maxsus cheklagich 5 o'rnatilgan. Ekish apparatidan kelayotgan urug' urug' o'tkazgich 3 orqali utib, urug' uchun ochilgan ariqchaga tushadi. Ko'mish disklari 12 urug'ni to'liq ko'milishini ta'minlab beradi. Ko'mish disklari 12ni bir tekis ishlashi uchun tutqich 18 o'rnatilgan. Tutqichning uchiga yo'naltiruvchi vtulka 20, shtok 15 va prujina 17 mahkamlangan. Prujina bikirligi disk chuqurligini rostlash vinti 21 orqali rostlanadi.



1-rasm. Urug'larni yo'l-yo'l usulda ekadigan mashinaning texnologik sxemasi:

2-taqish mexanizmi; 3-ekish chuqurligini rostlash mexanizmi; 4-harakat beruvchi tayanch g'ildirak; 5-urug' bunker ekish apparati bilan birgalikda; 6-urug' utkazgich; 7-harakat uzatish mexanizmi; 8-pichoq; 9-panjasimon soshnik; 10-panjasimon ag'dargich; 11-tutqich; 12,13-tutqichlarni mahkamlash mexanizmi; 14-urug' taqsimlagich; 15-brus; 17,16-bo'ltlar.



2-rasm. Loyihalangan soshnikning umumiy ko'rinishi:

a) old ko'rinshi, b) yuqoridan, 1-strelkasimon panja; 2-tutqich; 3-urug' o'tkazgich; 4-urug' o'tkazgich tutqichi; 5-cheklagich; 6-cheklagich tutqichi; 7,8,9-rostlash teshiklari; 10-urug' o'tkazgich joylashishini rostlagich xamut; 11-xamut bolti; 12-ko'mish diski; 13-vilka; 14-pales; 15-shtok; 16-disk o'qi; 17-prujina; 18-disk tutqichi; 19-kronshteyn; 20-yunaltiruvchi vtulka; 21-disk chuqurligini rostlash vinti.

Xulosa. Taklif etilayotgan qurilmani ekinlarni urug'ini yo'l-yo'l usulda ekishda qo'llab, ekish sifatini yaxshilash, mehnat sarfini va ammartizasiya harajatlarini kamaytirish mumkin. Buning natijasida hosildorlikni oshirish va umumiy harajatlarni kamaytirish imkoni tug'iladi.

C VITAMINI (ANTISKORBUT VITAMINI)

Z.G'ofurova - talaba, E.Xusanov – ilmiy raxbar

C vitamini(askarben kislota) tirik arganezmida juda ko'p xil fiziologik vazifalarni bajaruvchi vitamindir. Shning uchun ham u eng ahamiyatli vitaminlardan hisoblanadi. U rangsiz,hidsiz suvda yaxshi eriydigan, nordon tamli modda bo'lib kristal holda uzoq yillar o'zini xossasini saqlaydi, lekin eritma holida jumladan o'simlik, hayvon maxsulotlari tarkibida buzula boshlaydi ya'ni u turli omillar ta'sirida oksidlana boradi. Neytral va ishqoriy muhitda 50⁰ atrofida xaroratda buzuladi. Kislotali muxutda esa chidamlidir.

C vitaminini birinchi marotaba 1922 yilda rus olimi N.A.Bessonov karam shirasidan ajratib olib, uning oksidlanish va qaytarilish jarayonlarida faol qatnashadigan kislota xususiyatiga ega bo'lgan modda ekanligini aniqladi. Keyinchalik esa u kimyoviy yo'l bilan sentiz qilindi. U sof holda rangsiz kristall modda bo'lib, mazasi nordon, suvds yaxshi eriydi. Qizdirilganda kislotali muhitda ancha chidamli bo'lib, ishqoriy va neytral muhitda tezda parchalanib ketadi.

Ozuqa tarkibida C vitaminining yetishmasligi singa (lavsha zangila) yoki skorbut deb ataladigan og'ir kasallikka olib keladi.

Odinlari singa kasali namgarchilikdan va sovuqdan paydo bo'ladigan ksallik dib hisoblangan. Bu kasallik sababi oziq mahsulotlarning yitishmasligidan ekanligini 1901 yilda rus olimi B.B.Pashutin aniqlagan va bu kasallik ayniqsa qish ,yolchimay turgan paytlarda kuchayishi kuzatilgan.

Singada organizmda umumiy darmonsizlik yurakning bezillab tez – tez urishi, xansirash, qon tomirlari devorlarining, xususan kapilyarlar devorlarining shikaslanishi va mo'rt bo'lib qolishi kuzatiladi. Natijada teri, muskullar, bo'g'umlar va boshqa organizmlarga xam qon quyilishi(dog'lar paydo bo'lishi),milklarning qonashi, yallig'lanishi, suyaklarning kuchsizlanib sinishi, tish suyaklarining yemirilishi va tishlarning qimirlab tushib ketishi kuzatiladi. Shu bilan birgalikda tirik or-